ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 1,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

MAMMADOVA SHAKAR,
XAMIDOV MANSUR
Ozarbayjon va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili 7

YAKUBOVA NILUFAR EGAMBERGANOVNA
O‘zak va qolip (vazn) nazariyasi arabiy o‘zlashmalarni
tahlil qilishning asosiy mezoni sifatida 12

SAMANDAROV RUSTAM DO‘SYOROVICH
Tilshunoslik fani taraqqiyotida applikativ modelning murakkab
sintaktik qurilmalar shakllanishidagi o‘rni 17

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Арабская лингвистическая традиция VII–XVII вв.: формирование
интеллектуального стиля и инструментов сохранения языковой нормы 21

ALIMOVA ZARIFAXON VAXOBOVNA
MAMAROZIQOVA SUG‘DIYONA SHUXRATJON QIZI
Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostonida forsiy o‘rin-joy yasovchi affikslarining qo‘llanilishi 25

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA,
YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA
Mahmud Koshg‘ariyning «Devony lug‘oti-t-turk» asarida keltirilgan
maqollardagi so‘zlarning semantik-stilistik xususiyatlari 29

SADULLAYEVA MATLYUBA AXROROVNA
Ahmad Yassaviy ijodining ramziy tili va undagi raqamli tasavvuf 33

SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
Arab tilida enantiosemiya hodisasi: semantik tabiati va ilmiy talqinlar tahlili 36

PANJIEVA NASIBA NARMAXMATOVNA
SAIBNAZAROVA NAZOKAT
English proverbs with number components 39

ЛАТИПОВ АЗИЗ АКБАРАЛИЕВИЧ
Сопоставительная характеристика категории
фазовости в английском и узбекском языкознании 42

AMONOV MUXTORJON UMAROVICH
«Boburnoma» asaridagi arabcha o‘zlashmalarda antonimlik 45

ОРИФЗОДА МАДИНА КАМИЛОВНА,
ОРИФЗОДА БОНУ КАМИЛОВНА
Системное изучение словообразовательной омонимии
в ретроспективном и перспективном аспектах 48

SABIROV ASROR ABDULLAYEVICH
Nemis–o‘zbek siyosiy terminlarining semantik va stilistik xususiyatlari 52

IBRAXIMOVA IRODA BOBIR QIZI
O‘zbekistonda til siyosati va ingliz tilining rivoji 56

TURSUNOVA MARXABO RAXMONOVNA
Jojo Moyesning «To seni topgunimcha» romanida kognitiv dissonans fenomenining
psixologik va lingvistik talqini hamda uning tarjimashunoslikdagi ifodasi 60

ARZIMURODOVA E’ZOZA BERDIMUROD QIZI
Zamonaviy mobil aloqa terminlarida transliteratsiya strategiyalari: ingliz va o‘zbek tillari qiyosida 64

BOZOROVA SEVARA KAMOL QIZI
Savdo konsepti doirasida sinonimiya (o‘zbek va ingliz tillari misolida) 68

КАРИМОВА ГУЗАЛ ИХТИЯРОВНА
Лингвокультурологический аспект концепта и его изучение в разных языках 71

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
O‘tkir Rahmat she’riyatida sinonim so‘zlarning qo‘llanishi haqida ayrim mulohazalar 76

МУНДАРИЖА

MUSTAFOEVA MAKSAD ASKAROVNA
The structural and linguistic analysis of anthroponyms in «Beowuf» and «Alpomish» folk epics 79

NOSIROVA DILNOZA RIZOKULOVNA
Semantic and pragmatic features of john green's novels in contemporary young adult literature 82

RAXIMOVA ZARINA UKTAMOVNA
O'smirlar psixologiyasining lingvopoetik ifodasi va tarjimada ichki monolog hamda emotsional tasvir 87

RAXMATOVA GULNOZA ISOXONOVNA
O'zbek tilidagi so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalarining ingliz tilidagisi bilan qiyosi 90

BERDIYEVA SITORA UTKEROVNA
G'afur G'ulomning «Shum bola» asarida yumorning badiiy funksiyalarining lingvistik jihatlari 93

SHAMSITDINOVA MOXINABONU AKBAR QIZI
Yapon tilida omonimlardan foydalanishda nutqiy strategiyalar 98

ADABIYOTSHUNOSLIK

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Телба образининг бадиий талқини
(Эркин Аъзамнинг «Сув ёқалаб» ва «Танҳо қайиқ» киноқиссалари мисолида) 100

ASQAROVA ZULAYXO YANGIBOYEVNA
Muhammad Rizo Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asaridagi ta'rixlarning badiiy-estetik qimmati 104

MAMADJONOVA SEVARA MAXAMADJON QIZI
Adabiyotshunoslikda dualizm tushunchasining nazariy va
metodologik asoslari (Agata Kristi poetikasi misolida) 109

RAHIMOVA SARVINOZ TOLIBOVNA
Usmon Azimning «Devorlari yiqilgan bog'» hamda «Yana sevgi haqida she'rlar»
asarlaridagi simulyakra va boshqa postmodern xususiyatlar ifodasi 112

СААКЯН РОЗА ЮРЬЕВНА
Поэтика полемического жанра в памфлетной публицистике
Даниэля Дефо и Жжонатана Свифта 115

SHAMSIYEVA SHOXISTAXON QUDRATULLAYEVNA
Gender rollarni aks ettiruvchi stereotiplar 119

НАСРИДИНОВА СИТОРА УТКИРОВНА
Мотив отсутствия и присутствия как средство создания
напряжения в рассказе Джека Ритчи «Отсутствие эмили» 125

BAFOYEVA ROXILA VALIJON QIZI
Amerika hamda o'zbek postmodern adabiyoti xususiyatlari 128

KHAKIMOVA NARGIZA KHAYRILLOYEVNA
Mythological origins of the epics "Arthuriana" and "Alpamysh" 131

TA'LIM

TILOVOVA GO'ZAL RUSTAMOVNA
Ta'lim jarayonida o'quv izohli lug'atlardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati 135

YULDASHEVA DILAFRUZ
The role of teacher instruction in efl classrooms: a discourse-oriented analysis
of their importance in teaching young learners 138

ния заключается в том, что глубокое изучение омонимии производных слов способно раскрыт суть и механизмы возникновения омонимии среди непроизводных основ. Такой подход позволяет не только систематизировать существующие знания, но и пересмотреть спорные вопросы общей теории омонимии в лингвистике.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

NEMIS–O'ZBEK SIYOSIY TERMINLARINING SEMANTIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARI

Sabirov Asror Abdullayevich,
Ma'mun universiteti
G'arb tillari va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Siyosiy terminologiya tilning ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bog'liq muhim qatlamlaridan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti, davlat boshqaruvi shakllarining takomillashuvi hamda siyosiy institutlarning rivojlanishi jarayonida siyosiy tushunchalarni ifodalovchi terminlar tizimi ham muntazam ravishda boyib boradi. Shu sababli siyosiy terminlar nafaqat muayyan siyosiy hodisa yoki tushunchani ifodalash vositasi, balki jamiyatning siyosiy tafakkuri va ideologik jarayonlarini aks ettiruvchi muhim lingvistik birlik sifatida ham qaraladi.

Terminologiya nazariyasida terminlarni tizimli tarzda o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Terminologik birliklarni tizimli yondashuv asosida tadqiq etish zarurligi terminologiya sohasidagi tadqiqotchilar tomonidan ham ta'kidlangan. Xususan, terminologiya nazariyasining asoschilaridan biri bo'lgan E. Wüster terminlarni alohida leksik birlik sifatida emas, balki muayyan terminologik tizim tarkibidagi element sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi[1]. Keyingi tadqiqotlarda ham terminologik tizimning shakllanishi, rivojlanishi hamda terminlarning funksional xususiyatlari turli ilmiy nuqtayi nazardan o'rganilgan.

Til taraqqiyoti jarayonida ko'plab terminlar bir tildan boshqa tilga o'zlashib boradi[2]. Ayniqsa, Yevropa tillarida shakllangan siyosiy terminlarning boshqa tillarga kirib kelishi til taraqqiyotining muhim jarayonlaridan biri hisoblanadi. Nemis tilida shakllangan yoki faol qo'llanadigan ayrim siyosiy terminlar ham boshqa tillar qatorida o'zbek tiliga o'zlashgan. Bunday terminlar siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy jarayonlarni ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilining siyosiy terminologik tizimi tarixiy taraqqiyot jarayonida turli manbalardan o'zlashgan terminlar hisobiga shakllanib borgan. Mazkur terminlarning muayyan qismi germanizm terminlar hisoblanadi. Ular siyosiy diskurs, publitsistik matnlar hamda ilmiy adabiyotlarda faol qo'llanadi. Biroq o'zbek tiliga o'zlashgan ayrim germanizm siyosiy terminlarning semantik rivojlanishi hamda stilistik xususiyatlari yetarli darajada tizimli o'rganilmagan.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, nemis tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan ayrim siyosiy terminlarning semantik va stilistik xususiyatlarini tahlil qilish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur masalaning dolzarbligi nemis kelib chiqishli siyosiy terminlarning o'zbek tilida semantik va stilistik jihatdan moslashuvi yetarli darajada tizimli tadqiq etilmaganligi bilan izohlanadi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, nemis kelib chiqishli ayrim siyosiy terminlarning o'zbek tilida semantik rivojlanishi hamda stilistik qo'llanish xususiyatlari qiyosiy-lingvistik yondashuv asosida tahlil qilinib, ularning o'zbek siyosiy terminologik tizimidagi o'rni aniqlashtiriladi.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- tanlab olingan siyosiy terminlarning etimologik

[1] Eugen W. Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. – Wien: Springer Verlag, 1979.
[2] Reformatskiy A. Введение в языкознание. – Москва: Аспект Пресс, 2005.

manbalarini aniqlash;

- terminlarning semantik rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish;

- o‘zbek tilida qo‘llanish jarayonida yuzaga kelgan stilistik xususiyatlarni aniqlash;

- germanizm siyosiy terminlarning o‘zbek tilining siyosiy terminologik tizimidagi o‘rnini yoritish.

Tadqiqotning empirik bazasini nemis tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan siyosiy terminlar tashkil etadi. Mazkur maqolada dissertatsiya doirasida tahlil qilingan terminlar korpusidan ayrim namunalar tanlab olinib, ularning semantik va stilistik xususiyatlari qiyosiy-lingvistik asosda o‘rganildi. Tadqiqot materiali sifatida Bürger, Bürgerschaft, Gastarbeiter, Mentalität hamda Neutralität terminlari tanlab olindi. Mazkur terminlar siyosiy diskursda faol qo‘llanilishi hamda turli lug‘atlarda qayd etilganligi sababli tadqiqot uchun reprezentativ material sifatida tanlandi va nemis, rus hamda o‘zbek tillaridagi izohli hamda etimologik lug‘atlar asosida tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida birinchi navbatda qiyosiy-lingvistik metod qo‘llanildi. Ushbu metod yordamida tanlab olingan terminlarning nemis tilidagi shakli, ularning boshqa tillardagi qo‘llanishi hamda o‘zbek tilidagi ifodalanish xususiyatlari o‘zaro qiyosiy tarzda o‘rganildi. Bu esa terminlarning o‘zlashish jarayonida yuzaga kelgan semantik o‘zgarishlarni aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqotda leksikografik tahlil metodidan ham foydalanildi. Mazkur metod orqali terminlarning turli lug‘atlardagi izohlari, ma’no talqinlari hamda etimologik ma’lumotlari o‘rganildi. Leksikografik manbalar terminlarning dastlabki ma’nosi va keyingi semantik rivojlanishini aniqlashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qildi.

Bundan tashqari, terminlarning o‘zbek tilidagi qo‘llanish xususiyatlarini aniqlash maqsadida semantik tahlil metodidan foydalanildi. Ushbu metod orqali terminlarning ma’no tarkibi, semantik kengayish holatlari hamda stilistik qo‘llanish imkoniyatlari o‘rganildi. Natijada tanlab olingan siyosiy terminlarning o‘zbek tilida qanday semantik va stilistik xususiyatlarga ega ekani aniqlashtirildi.

Bürger termini nemis tilida ijtimoiy-siyosiy leksikaga mansub bo‘lib, tarixiy jihatdan shahar aholisi yoki fuqarolik huquqiga ega shaxsni bildiruvchi birlik sifatida shakllangan. Etimologik jihatdan ushbu termin qadimgi german tillaridagi burg (“qal’a”, “mustahkamlangan shahar”) so‘ziga borib taqaladi[1]. Dastlab bu termin qal’a yoki mustahkamlangan shahar hududida yashovchi aholini ifodalagan bo‘lsa, keyinchalik uning ma’nosi kengayib, siyosiy-huquqiy mazmunga ega bo‘lgan tushunchani bildiruvchi termin sifatida qo‘llanila boshlagan.

Nemis tilidagi izohli lug‘atlarda **Bürger** termini odatda muayyan davlat yoki shahar hududida yashovchi, fuqarolik huquqiga ega bo‘lgan shaxs ma’nosida talqin qilinadi[2]. Rus tilidagi lug‘atlarda esa bu termin ko‘pincha *гражданин* ekvivalenti orqali ifodalanadi[3]. O‘zbek tilida esa ushbu termin asosan **fuqaro** so‘zi bilan tarjima qilinadi[4].

Semantik nuqtayi nazardan **Bürger** termini siyosiy-huquqiy mazmunga ega bo‘lgan tushunchani ifodalaydi. U davlat va jamiyat o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi shaxsni anglatadi. Zamonaviy siyosiy diskursda ushbu termin fuqarolik jamiyati, siyosiy huquqlar hamda ijtimoiy mas’uliyat kabi tushunchalar bilan bevosita bog‘liq holda qo‘llanadi.

Funksional jihatdan **Bürger** termini ko‘proq rasmiy-siyosiy hamda ilmiy nutq uslubiga xos birlik hisoblanadi. Shu bilan birga, publitsistik matnlarda ham ushbu termin jamiyatning siyosiy hayotidagi faol subyektni ifodalash maqsadida qo‘llanadi.

O‘zbek tiliga o‘zlashish jarayonida **Bürger** termini ko‘pincha milliy ekvivalent orqali ifodalanadi. Ya’ni terminning asosiy semantik mazmuni saqlangan holda, o‘zbek tilida **fuqaro** shakli orqali qo‘llanadi. Bu hol o‘zlashgan terminlarning milliy terminologik tizimga moslashuvi jarayonida ekvivalentlashuv mexanizmining muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Bürgerschaft termini nemis tilida ijtimoiy-siyosiy terminologiyaga mansub bo‘lib, fuqarolar jamoasi yoki fuqarolik maqomini bildiruvchi tushunchani ifodalaydi. Etimologik jihatdan ushbu termin **Bürger** (“fuqaro”) so‘zidan hosil bo‘lgan bo‘lib, -schaft affiksi yordamida yasalgan. Nemis tilida bu affiks odatda muayyan ijtimoiy guruh yoki birlikni bildiruvchi abstrakt tushunchalarni ifodalashda qo‘llanadi.

Nemis tilidagi izohli lug‘atlarda **Bürgerschaft** termini bir necha ma’noda talqin qilinadi. Birinchi ma’noda u muayyan shahar yoki davlat fuqarolarining umumiy jamoasini bildiradi. Ikkinchi ma’noda esa ayrim davlatlarda parlament yoki vakillik organining quyi palatasini ifodalash uchun ham qo‘llanadi. Rus tilidagi lug‘atlarda ushbu termin ko‘pincha *гражданство* yoki *гражданская общность* tushunchalari bilan ifodalanadi. O‘zbek tilida esa mazkur termin **fuqarolik** yoki **fuqarolar jamoasi** kabi birliklar orqali beriladi.

[1] Edrich K. Etymologisches Wörterbuch der deutschen Sprache. – Berlin, 1967. – S. 112.

[2] Werner Sch. Duden - Deutsches Universal-wörterbuch. – Berlin: Dudenverlag, 2015. – S. 362.

[3] Ожегов С. Толковый словарь русского языка. – Москва: Азбуковник, 1999. – С. 146.

[4] Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S., Kokren K., Saidxonov M., Sobirov A., Quronov D. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 66.

Semantik nuqtai nazardan **Bürgerschaft** termini jamiyatning siyosiy tuzilishi hamda fuqarolar o‘rtasidagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar bilan bog‘liq tushunchani ifodalaydi. Mazkur birlik nafaqat fuqarolik maqomini anglatadi, balki fuqarolarning jamiyat hayotidagi ijtimoiy va siyosiy faolligini ham ifodalovchi tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy siyosiy diskursda ushbu termin fuqarolik jamiyati, demokratik institutlar hamda jamiyatdagi ijtimoiy hamkorlik jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda qo‘llanadi.

Nutq uslubi jihatidan **Bürgerschaft** termini asosan ilmiy va rasmiy-siyosiy nutq uslubiga xos bo‘lib, davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati hamda siyosiy tizimga oid matnlarda faol qo‘llanadi. Publitsistik matnlarda esa u ko‘pincha fuqarolarning siyosiy faolligi yoki fuqarolik institutlari faoliyatini ifodalashda ishlatiladi.

O‘zbek tilida mazkur termin to‘g‘ridan-to‘g‘ri fonetik o‘zlashma shaklida qo‘llanilmaydi. Uning mazmuni, odatda, **fuqarolik**, **fuqarolar jamoasi** yoki **fuqarolik jamiyati** kabi birliklar orqali ifodalanadi. Bu hol terminlarning milliy terminologik tizimga kirib borish jarayonida **semantik ekvivalentlashuv** muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Gastarbeiter termini esa nemis tilidagi ijtimoiy-siyosiy diskursga mansub bo‘lib, boshqa mamlakatdan vaqtincha ishlash maqsadida kelgan mehnat migrantini anglatadi. Ushbu birlik ikki komponentdan tashkil topgan: *Gast* (“mehmon”) va *Arbeiter* (“ishchi”). Termin dastlab XX asr o‘rtalarida G‘arbiy Germaniyada iqtisodiy taraqqiyot davrida boshqa davlatlardan jalb etilgan ishchilarni ifodalash uchun keng qo‘llana boshlagan.

Nemis tilidagi izohli lug‘atlarda **Gastarbeiter** boshqa mamlakatdan kelib, ma’lum muddat davomida ishlayotgan xorijiy ishchini bildiradi. Rus tilida bu termin ko‘pincha **гастарбайтер** shaklida transliteratsiya qilingan holda ishlatiladi. O‘zbek tilida esa mazkur tushuncha, asosan, **mehnat migranti** yoki **xorijda ishlovchi ishchi** kabi birliklar orqali ifodalanadi.

Semantik jihatdan **Gastarbeiter** termini iqtisodiy migratsiya jarayonlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan tushunchani bildiradi. Zamonaviy siyosiy diskursda u migratsiya siyosati, mehnat bozori hamda ijtimoiy integratsiya masalalarini yoritishda faol qo‘llanadi.

Funksional jihatdan **Gastarbeiter** termini ko‘proq publitsistik nutq uslubida qo‘llanadi. Ommaviy axborot vositalari hamda siyosiy tahlil matnlarida ushbu termin migratsiya jarayonlarini ifodalashda faol ishlatiladi. Shu bilan birga, ilmiy matnlarda ham migratsiya tadqiqotlari doirasida qo‘llanadi.

O‘zbek tiliga moslashish jarayonida **Gastarbeiter** termini semantik moslashuv orqali ifodalanadi. Termin to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashmagan bo‘lsa-da, uning mazmuni **mehnat migranti** yoki **xorijiy ishchi** kabi tushunchalar orqali beriladi. Bu hol terminning milliy til tizimiga moslashuvi jarayonida semantik ekvivalentlashuv muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Mentalität termini nemis tilida ijtimoiy-siyosiy va sotsiologik leksikaga mansub bo‘lib, jamiyat yoki muayyan ijtimoiy guruhning fikrlash uslubi, dunyoqarashi hamda psixologik xususiyatlarini ifodalovchi tushunchani bildiradi. Etimologik jihatdan ushbu termin lotin tilidagi *mens* (“aql”, “tafakkur”) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib[1], keyinchalik Yevropa tillarida keng qo‘llanila boshlagan.

Nemis tilidagi izohli lug‘atlarda **Mentalität** termini muayyan ijtimoiy guruh yoki xalqning dunyoni idrok etish uslubi, fikrlash tarzini ifodalovchi tushuncha sifatida talqin qilinadi. Rus tilida ushbu termin ko‘pincha *менталитет* shaklida qo‘llanadi. O‘zbek tilida esa mazkur termin **mentalitet** yoki ayrim hollarda **tafakkur tarzining xususiyati** kabi birliklar orqali ifodalanadi.

Semantik jihatdan **Mentalität** termini jamiyatning ijtimoiy, madaniy hamda siyosiy hayotiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni ifodalashda qo‘llanadi. Siyosiy diskursda ushbu termin ko‘pincha muayyan jamiyat yoki ijtimoiy guruhning siyosiy qarashlari, ideologik yo‘nalishlari hamda ijtimoiy xulq-atvori bilan bog‘liq holda ishlatiladi.

Stilistik jihatdan **Mentalität** termini asosan ilmiy hamda publitsistik nutq uslublarida qo‘llanadi. Sotsiologiya, siyosatshunoslik hamda madaniyatshunoslikka oid ilmiy tadqiqotlarda ushbu termin keng ishlatiladi. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalarida ham muayyan jamiyatning siyosiy yoki madaniy xususiyatlarini tavsiflashda qo‘llanishi mumkin.

O‘zbek tiliga o‘zlashish jarayonida **Mentalität** termini asosan transliteratsiya yo‘li bilan **mentalitet** shaklida qo‘llanadi. Termin o‘zbek tilining ilmiy leksikasida mustahkam o‘rin egallagan bo‘lib, ko‘pincha sotsiologik va siyosiy tahlillarda ishlatiladi. Bu hol terminlarning xalqaro ilmiy terminologiya tarkibida faol qo‘llanishini ko‘rsatadi.

Neutralität termini siyosiy va diplomatik terminologiyaga mansub bo‘lib, davlatning xalqaro munosabatlarda muayyan harbiy-siyosiy blok yoki mojaro tomonlaridan biriga qo‘shilmaslik siyosatini ifodalovchi tushunchani bildiradi. Etimologik jihatdan ushbu termin lotin tilidagi *neutralis* (“betaraf”) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, keyinchalik Yevropa tillarida keng tarqalgan.

[1] Madvaliyev A. O’zbek tilining izohli lug’ati, 2-jild. – Toshkent: O’zbekiston nashriyoti, 2020. – B. 580.

Nemis tilidagi izohli lug‘atlarda **Neutralität** termini davlatning harbiy yoki siyosiy mojarolarda betaraf pozitsiyani egallashi ma’nosida talqin qilinadi. Rus tilida ushbu termin *нейтралитет* shaklida qo‘llanadi. O‘zbek tilida esa mazkur termin **neytrallik** yoki **betaraflik** kabi birliklar orqali ifodalanadi.

Semantik nuqtayi nazardan **Neutralität** termini xalqaro siyosat va diplomatiya bilan bog‘liq muhim tushunchalardan biri hisoblanadi. U davlatlarning tashqi siyosatida muayyan mojarolarga aralashmaslik yoki harbiy bloklardan tashqarida qolish siyosatini ifodalaydi. Zamonaviy siyosiy diskursda ushbu termin ko‘pincha xalqaro xavfsizlik, diplomatik munosabatlar hamda geosiyosiy muvozanat bilan bog‘liq holda qo‘llanadi.

Nutq uslubi jihatidan **Neutralität** termini asosan rasmiy-siyosiy hamda ilmiy nutq uslublarida qo‘llanadi. Diplomatik hujjatlar, siyosiy tahlil matnlari hamda xalqaro munosabatlarga oid ilmiy tadqiqotlarda ushbu termin keng ishlatiladi.

O‘zbek tiliga moslashish jarayonida **Neutralität** termini semantik ekvivalentlashuv orqali ifodalanadi. Termin ko‘pincha **neytrallik** yoki **betaraflik** shaklida qo‘llanadi. Bu hol o‘zlashgan siyosiy terminlarning milliy til tizimiga moslashuvi jarayonida semantik moslashuv muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Tadqiqot jarayonida nemis tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan ayrim siyosiy terminlarning semantik va stilistik xususiyatlari qiyosiy-lingvistik asosda tahlil qilindi. Tanlab olingan Bürger, Bürgerschaft, Gastarbeiter, Mentalität hamda Neutralität terminlari asosida olib borilgan tahlil ushbu terminlarning o‘zbek tiliga moslashish jarayonida turli lingvistik xususiyatlarni namoyon qilganini ko‘rsatdi.

Avvalo, tahlil natijalari terminlarning semantik rivojlanish jarayonida muayyan o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatadi. Ayrim terminlar o‘zbek tilida asl ma’nosiga yaqin holda qo‘llanayotgan bo‘lsa, ayrimlarida semantik kengayish yoki moslashuv holatlari kuzatiladi. Masalan, Bürger termini o‘zbek tilida asosan fuqaro ekvivalenti orqali ifodalanib, siyosiy-huquqiy mazmunga ega tushunchani bildiradi. Shu bilan birga, Gastarbeiter termini esa o‘zbek tilida mehnat migranti kabi birliklar orqali ifodalanib, iqtisodiy migratsiya jarayonlarini anglatadi.

Tahlil shuni ham ko‘rsatdiki, nemis tilidan o‘zlashgan ayrim siyosiy terminlar o‘zbek tilida stilistik jihatdan turli nutq uslublarida qo‘llanadi. Xususan, Bürger va Neutralität kabi terminlar ko‘proq rasmiy-siyosiy hamda ilmiy nutq uslublarida ishlatiladi. Mentalität termini esa ilmiy hamda publitsistik matnlarda keng qo‘llanadi. Gastarbeiter termini esa asosan publitsistik diskursda migratsiya jarayonlarini ifodalashda faol qo‘llanadi.

Shuningdek, tahlil jarayonida terminlarning o‘zbek tiliga o‘zlashuvi turli lingvistik mexanizmlar orqali amalga oshgani aniqlandi. Tahlil natijalariga ko‘ra, nemis tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan siyosiy terminlarni o‘zlashish mexanizmlariga ko‘ra uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga milliy ekvivalent orqali ifodalanadigan terminlar kiradi (masalan, Bürger → fuqaro). Ikkinchi guruhga transliteratsiya yo‘li bilan o‘zlashgan terminlar mansub bo‘lib, ularga Mentalität → mentalitet kabi birliklarni kiritish mumkin. Uchinchi guruhga esa semantik ekvivalentlashuv orqali ifodalanadigan terminlar kiradi (Gastarbeiter → mehnat migranti, Neutralität → betaraflik). Mazkur tasnif germanizm siyosiy terminlarning o‘zbek tiliga o‘zlashish jarayonida turli lingvistik mexanizmlar faol bo‘lganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, nemis tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan siyosiy terminlar o‘zbek siyosiy diskursida semantik rivojlanish hamda stilistik moslashuv jarayonlari orqali faol qo‘llanadigan terminologik birliklar sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqot natijalari germanizm siyosiy terminlarning o‘zbek tilidagi semantik va stilistik xususiyatlarini aniqlash hamda o‘zbek siyosiy terminologiyasining rivojlanish jarayonini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Rezyume. Maqolada nemis tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan ayrim siyosiy terminlarning semantik va stilistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot uchun Bürger, Bürgerschaft, Gastarbeiter, Mentalität va Neutralität terminlari tanlab olinib, ular nemis, rus va o‘zbek tillaridagi izohli hamda etimologik lug‘atlar materiallari asosida qiyosiy-lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganildi. Tahlil natijasida ushbu terminlarning o‘zbek tiliga o‘zlashish jarayonida semantik o‘zgarishlar va stilistik moslashuv jarayonlarini boshdan kechirganligi aniqlandi.

Resume. The article analyzes the semantic and stylistic features of certain political terms that entered the Uzbek language from German. For the study, the terms *Bürger, Bürgerschaft, Gastarbeiter, Mentalität,* and *Neutralität* were selected and examined from a comparative-linguistic perspective based on explanatory and etymological dictionaries in German, Russian, and Uzbek. The analysis revealed that during the process of their borrowing into Uzbek, these terms underwent certain semantic changes and stylistic adaptation processes.

Резюме. В статье анализируются семантические и стилистические особенности некоторых политических терминов, вошедших в узбекский язык из немецкого. В качестве материала исследования были выбраны термины *Bürger, Bürgerschaft, Gastarbeiter, Mentalität* и *Neutralität*, которые были изучены с сопоставительно-лингвистической точки зрения на основе толковых и этимологических словарей немецкого, русского и узбекского языков. В результате анализа установлено, что в процессе заимствования в узбекский язык данные термины претерпели определённые семантические изменения и стилистическую адаптацию.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEKISTONDA TIL SIYOSATI VA INGLIZ TILINING RIVOJI

Ibraximova Iroda Bobir qizi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi,
filolgiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Til siyosati har qanday xalq taraqqiyotining muhim asoslaridan biri bo‘lib, u ta‘lim, madaniyat va ijtimoiy hamjihatlikka ta‘sir etuvchi kuchga ega. Ko‘p millatli, boy lisoniy merosga ega O‘zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishgandan buyon til siyosatida qator muhim islohotlarni amalga oshirdi. Ushbu maqolada O‘zbekistonda ingliz tili qo‘llovi holati tahlil qilinadi, uning tarixiy ko‘rinishi, taraqqiyoti, ta‘limga tadbiq etilishi, identiklikka va davlat qurilishiga ta‘siri ko‘rib chiqiladi.

Til nafaqat muloqot vositasi, balki madaniy o‘ziga xoslikni, ijtimoiy hamjihatlikni va milliy taraqqiyotni shakllantiradigan kuchli quroldir. O‘zining til xilma-xilligi bilan tanilgan O‘zbekistonda til siyosati kuchli davlatchilikni shakllantirish va madaniyatni asrab-avaylashda muhim rol o‘ynadi. Til siyosatini izchil yo‘lga qo‘yishning naqadar ahamiyatli ekanligi mustaqillikka erishgunga qadar ham anglab yetilgan edi. 1989-yil 21-oktabrdan boshlab o‘zbek tili O‘zbekistonda davlat tili deb e’tirof etila boshlandi. Biroq «Davlat tili to‘g‘risida»gi qonunning o‘zida ta’kidlanganidek, «O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi».[1] O‘shandan beri O‘zbekistonda til siyosati bir necha bosqichlarda tarixan rivojlandi.

Til siyosati shaxsiy va jamoaviy identiklikni shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Sotsiolingvistlar ta’kidlaganidek, til shunchaki muloqot vositasi emas, balki insonning madaniy kelib chiqishi, merosi va ijtimoiy identikligini yaqqol ko‘rsatadigan kuchli belgidir. Til va identiklik o‘rtasidagi munosabat ikki taraflama ta’sirga ega. Chunki til insonning identikligini aks ettiradi va identiklik ham o‘z navbatida til tanlash va undan qay tariqa foydalanishga ta’sir qiladi. Shu sababli, til siyosatini o‘rganish muayyan lingvistik tanlovlar va qonunlarning shaxslar va jamoalarning identikligiga qanday ta’sir qilishini tushunish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Til siyosati, ko‘plab tadqiqotlarda isbotlanganidek, odamlarning til tanlash va bir tilni boshqalaridan afzal ko‘rishlariga, ayniqsa ta’lim kontekstida sezilarli darajada ta’sir qiladi. O‘zbekistondagi til siyosatini o‘rganish davlat o‘zbek tilini asosiy ta’lim tili sifatida faol targ‘ib qilayotgan ko‘p tilli muhitda odamlar o‘zlarining lisoniy identikliklarini qanday namoyon qilishlari haqida ma’lumot beradi. Bunday tadqiqotlar nafaqat til va identiklik o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni tushunishga zamin yaratadi, balki til siyosatining ko‘p tilli shaxslarning kundalik hayotiga real ta’sirini ko‘rsatadi.

[1] O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrdagi 167-I-son “O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida”gi Qonunga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni. 2-modda.